Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 15-oktyabr, № 214 (9385) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING OZARBAYJONGA AMALIY TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-oktyabr kuni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Boku shahriga keldi.



Haydar Aliyev nomidagi xalqaro aeroportda mamlakatimiz yetakchisini Ozarbayjon Bosh vazirining o‘rinbosari Shahin Mustafayev va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Boku shahriga amaliy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Ozarbayjon yetakchisini Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashga raisligi muvaffaqiyatli kechayotgani hamda uning yettinchi sammiti yuqori saviyada tashkil etilgani bilan samimiy tabrikladi.

Shu yilning avgust oyida Ozarbayjon Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston – Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha darajalarda samarali aloqalar yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yil boshidan buyon o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga oshdi. Geologiya, energetika, qurilish, transport, logistika, yengil sanoat, turizm va boshqa sohalardagi kooperatsiya loyihalari faol pallaga kirdi.

Madaniy-gumanitar almashinuvning tadbirlarga boy dasturi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashib, bo‘lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

15-oktyabr kuni O‘zbekiston yetakchisi Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitida ishtirok etadi.

Sammit doirasida qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

TOSHKENTDA IJTIMOIY INFRATUZILMA ZAMONAVIY SHAHARSOZLIK TALABLARI ASOSIDA BUNYOD ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-oktyabr kuni Toshkent shahrida mahallalarni obodonlashtirish, yangi maktab va bog‘chalar qurish hamda shahar muhitini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Yashnobod tumanidagi Vatandosh, Mohinur, Al-Buxoriy va Tong mahallalarini kompleks yangilash loyihasi taqdim etildi. Ularning umumiy maydoni 75 gektar bo‘lib, bu yerda 18 ming 386 nafar aholi istiqomat qiladi.

Loyiha “15 daqiqalik mahalla” tamoyiliga asoslangan. Unga ko‘ra, aholi uchun zarur savdo va maishiy xizmatlar, ta’lim va tibbiyot muassasalari, dam olish hamda sport maskanlari odamlarga qulay masofada joylashtiriladi.

Hududda yashil maydonlarni kengaytirish, uch kilometrlik sayr yo‘lagini tashkil etish, bolalar va sport maydonchalarini yangilash, ko‘p tarmoqli sport inshootini barpo etish rejalashtirilgan. Mavjud maktablarni kengaytirish hisobiga 2 mingta qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni yaratish, 540 o‘ringa mo‘ljallangan to‘rtta bog‘cha va uchta poliklinika tashkil etish ham nazarda tutilmoqda.

Mahallalarda avtomobillarni hovlilardan tashqarida joylashtirish, jamoat transporti bekatlarini yangilash, xavfsiz piyoda va velosiped yo‘laklarini barpo etish taklif qilindi. Shuningdek, 76 ta uyning tashqi ko‘rinishi va muhandislik tarmoqlarini yangilash, ko‘chalarni yoritish, chiqindi yig‘ish shoxobchalarini ko‘paytirish ko‘zda tutilgan. Savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, kafe hamda aholi muloqot qilib, hordiq chiqaradigan joylar tashkil etiladi.

“15 daqiqalik mahalla” tamoyili asosida poytaxtda 2027-yilda 100 ta, 2030-yilga qadar esa 400 ta mahalla kompleks yangilanadi. Bu jarayonda ushbu mahallalardagi barcha infratuzilma, jumladan, issiqlik, ichimlik suvi, kanalizatsiya, elektr energiyasi, gaz va yoritish tizimlari, ko‘p kvartirali uylar fasadlari, yo‘l va yo‘laklar, bolalar va sport maydonchalari to‘liq yangilanadi. Mahallalarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daraxt va butalar soni xalqaro standartlarga moslashtiriladi.

2030-yilga qadar 400 ta mahallada 130 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi, xususan, 2027-yilda 100 ta mahallada 22 mingta. Buning uchun banklar tomonidan “konveyer” loyihalarni ishlab chiqish va ishga tushirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Poytaxtda aholi soni o‘sishi bilan o‘quvchi o‘rinlari tanqisligi ortib bormoqda. 2025/2026 o‘quv yilida u 141 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, keyingi besh yilda o‘quvchilar soni 71 mingtaga (14 foiz) ko‘payishi hisobiga 2030/2031 o‘quv yiliga borib, 212 mingtaga yetishi mumkin. Shu bois 2030-yilgacha respublika byudjeti hisobidan 48 mingta, mahalliy byudjet hisobidan 78 mingta yangi o‘quvchi o‘rni yaratish rejalashtirilgan. Natijada maktablarning yuklamasi hozirgi 1,4 koeffitsiyentdan 2030-yilda 1,2 gacha pasayadi.

2026/2027 o‘quv yili uchun umumiy maydoni 64,6 ming kvadrat metr bo‘lgan, jami 38 ming o‘rinli 24 ta yangi maktabning loyihalari tayyorlangan. Maktablarning amaldagi namunaviy loyihalariga 17 ta yangi imkoniyat qo‘shilmoqda. Jumladan, qo‘shimcha o‘quv maydonlari, kutubxona, sport va madaniyat tadbirlari uchun moslashuvchan zallar, o‘qituvchilar uchun qulay xonalar ko‘zda tutilgan. Loyihalarda pandus va liftlar, inklyuziv ta’lim xonalari, tibbiy xonalar, xavfsizlik hamda energiya tejamkorlik yechimlari ham nazarda tutilgan. Harakat va suv datchiklari hisobiga elektr energiyasi sarfi 20 foizgacha, suv sarfi 10 foizgacha tejaladi. Yangi yechimlar yer maydonini 50 foiz tejash, bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan maydon samaradorligini 15 foizga oshirish, sport maydonlarini uch barobar kengaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, namunaviy loyihalar samaradorligi 40 foizga oshiriladi.

Xususiy ta’lim markazlarining davlat maktablari bilan hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi. Bu o‘quvchilarning maktabning o‘zida oliygohlarga tayyorlanishi va yangi tillarni o‘rganishi uchun sharoit yaratadi.

Shaharda 3 – 7 yoshli bolalar soni 253 ming nafarni tashkil etadi. Ularning maktabgacha ta’lim bilan qamrovi 79,2 foiz, bog‘chalardagi o‘rinlar tanqisligi esa 65 mingta. Shu bois 2030-yilgacha respublika byudjeti hisobidan 8 mingta, mahalliy byudjet hisobidan 32 mingta qo‘shimcha bog‘cha o‘rni yaratish rejalashtirilmoqda. Natijada 2030-yilda qamrov 92 foizga yetkaziladi. 2026/2027 o‘quv yili uchun esa umumiy maydoni 32 ming kvadrat metr bo‘lgan, jami 16 ming o‘rinli 28 ta yangi bog‘chaning besh turdagi loyihalari tayyorlangan.

Bog‘chalarning namunaviy loyihasiga bolalar rivojlanishi va salomatligiga xizmat qiluvchi 14 ta yangi yechim kiritilmoqda. Ularda sensor va logoped xonalari, psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish joylari, tibbiy blok, turli mashg‘ulotlarga moslashtiriladigan zallar bo‘ladi. Bolalar xavfsizligi uchun videokuzatuv va jarohatdan himoyalovchi qoplamalar, qulay muhit yaratish uchun havo tozalagichlar, shuningdek, energotejamkor yoritish va quyosh panellari ko‘zda tutilgan. Bu orqali namunaviy loyihalar samaradorligi 38 foizga oshiriladi.

Taqdimotda Uchtepa tumanida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan “Uchtepa city” zamonaviy ishbilarmonlik markazini barpo etish loyihasi ham taqdim etildi. 37 gektar hududda ikki bosqichda amalga oshiriladigan loyihaning birinchi bosqichida 26 gektarda investor tomonidan 1 milliard dollar investitsiya kiritiladi. Ikkinchi bosqichda 11 gektarda turarjoy va xizmat ko‘rsatish binolari quriladi. Markazda ko‘p qavatli turarjoylar, ofislar, savdo-ko‘ngilochar majmua, xalqaro brendga ega mehmonxona va sayilgoh barpo etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston – Turkiya do‘stlik bog‘i va Otaturk ko‘chasining me’moriy konsepsiyasi ham namoyish qilindi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga taqdim etilgan loyihalarni aholi ehtiyojlari va shaharsozlik talablari asosida yanada puxta ishlab chiqish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘zA.

Yig‘ilish

HAR BIR MUROJAAT ORTIDA INSON TAQDIRI MUJASSAM

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligida o‘tkazilgan Senat Kengashi yig‘ilishida “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosi hamda davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlash holati muhokama qilindi.

Unda Senat a’zolari, Prezident Xalq qabulxonasi rahbari, Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura, vazirlik hamda idoralar vakillari, shuningdek, hududiy hokimliklar va mahalliy Kengashlar rahbarlari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasi – “Inson qadri uchun” tamoyilidir. Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ijtimoiy davlatning asosiy mohiyati esa, avvalo, insonning huquq va manfaatlarini ta’minlash, uning tashvishlarini eshitish hamda muammolariga yechim topishda namoyon bo‘ladi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyil davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy mezoni hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab xalq bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, fuqarolarning dardu tashvishlarini bevosita eshitish va ularning muammolariga yechim topishga alohida e’tibor qaratdi. Bu borada Prezident Xalq qabulxonalari va virtual qabulxona tashkil etildi, shaxsiy hamda sayyor qabullar tizimi yo‘lga qo‘yildi.

➡ 2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

«O‘ZBEKISTON EHTIROMI» ORDENI TA’SIS QILINADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida “O‘zbekiston ehtiromi” ordenini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining ochiq, pragmatik va o‘zaro manfaatli tashqi siyosati natijasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlik aloqalari izchil kengayib bormoqda.

Mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalarni hal etish, yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, savdo aloqalarini rivojlantirish hamda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro ishonchni kuchaytirish borasida tarixiy natijalarga erishilmoqda.

Mazkur jarayonlarda xorijiy davlat va hukumat hamda xalqaro tashkilotlar rahbarlari, davlat va jamoat arboblari, diplomatik korpus vakillari, yirik kompaniyalar boshliqlari hamda chet ellik hamkorlarning shaxsiy tashabbuslari va amaliy hissasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi bilan strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, yirik iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda alohida xizmat ko‘rsatgan xorijiy shaxslarni munosib taqdirlashning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

➡ 2

XALQLARNI YANADA JIPSLASHTIRUVCHI MARKAZ

Ko‘hna Buxoroda Ozarbayjon madaniyati va san’ati kunlari o‘zgacha ruhda kechmoqda. Ikki xalq ma’rifatparvar ijodkorlari, san’atkorlari ishtirokidagi dilkash uchrashuvlar, namoyish etilayotgan konsert dasturlari ko‘pchilikka manzur bo‘lmoqda.

Tadbir

Kuni kecha haftalik doirasida yana bir esda qolarli voqea bo‘lib o‘tdi. Buxoro davlat universitetining tarix fakultetida buyuk ozarbayjon mutafakkiri Yusuf Qorabog‘iy nomidagi Ozarbayjonshunoslik markazi ochildi.

Tantanali marosimda universitet rahbariyati, Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi vakillari, professor-o‘qituvchilar, talabalar qatnashdi. Tadbirda ta’kidlanganidek, ko‘p asrlik do‘stlik, qardoshlik rishtalari birlashtirib turuvchi ikki xalqning tarixiy shaxslari hayoti va ular qoldirgan boy ma’naviy merosni o‘rganish madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu markaz Ozarbayjon tarixi, milliy madaniyati, adabiyoti, san’atini o‘rganish, turkiy xalqlarning mushtarak merosini tad-qiq qilishda ilmiy izlanuvchilar, o‘qituvchilar uchun o‘ziga xos maydon vazifasini o‘tashi bilan ahamiyatli.

Shu o‘rinda markazning Yusuf Qorabog‘iy nomi bilan atalishi ham bejiz emasligiga e’tiborni qaratmoqchimiz. Ayonki, Buxoro azaldan ilmu fan beshiklaridan biri sanalgan. Shu bois dunyoning turli go‘shalaridan tolibi ilmlar ushbu zaminga kelib ilm o‘rganish istagida bo‘lishgan. Ana shunday insonlardan biri – Muhammadjon Yusuf al-Qorabog‘iy. U asli ozarbayjonlik, ammo umrining ko‘p qismini Buxoroda o‘tkazgan, XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi yarmidagi Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy va ilmiy tafakkuri rivojiga munosib hissa qo‘shgan zot sanaladi. Olimning mantiq, falsafa, jug‘rofiya, arab tili, riyoziyot, lug‘atshunoslikka doir yigirma to‘rt asari saqlanib qolgan. G‘azallar “Devon”i ham bo‘lgan.

Tadbirdan so‘ng BuxDU olimlari hamda Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi vakillari ishtirokida davra suhbati tashkil qilindi. Unda ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, jumladan, Yusuf Qorabog‘iyning ilmiy-falsafiy merosini chuqur o‘rganish yuzasidan ham fikrlashib olindi.

Buxoro shahrida haftalik doirasidagi tadbirlar davom etmoqda.

Istam IBROHIMOV (“Xalq so‘zi”).

O‘zbekiston – Qozog‘iston:

O‘ZARO ISHONCHGA TAYANGAN STRATEGIK SHERIKLIK

Et bilan tirnoqni ajratib bo‘lmaganidek, o‘zbek bilan qozoq millatini ham bir-biridan ayro holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Asrlar davomida bir daryodan suv ichgan bu ikki xalq, ayniqsa, so‘nggi yillarda yanada jipslashdi. Markaziy Osiyoning besh davlatini, ta’bir joiz bo‘lsa, bir qo‘lning besh barmog‘iga o‘xshatish mumkin. Ularning bugungidek bir musht bo‘lishi umumiy taraqqiyotga erishish yo‘llarini kengaytirmoqda. Mintaqamiz imkoniyatlari va salohiyati bundan-da cheksiz.

Biz va jahon

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ayni munosabatlar strategik ahamiyatga ega. Bir necha yil oldin bu aloqalar ittifoqchilik darajasiga ko‘tarilgan. Qosim-Jomart Toqayevning Xiva shahriga norasmiy tashrifi chog‘ida esa Prezidentlar O‘zbekiston – Qozog‘iston hamkorligi va siyosiy aloqalari endi ikki tomonlama tandem formatida rivojlanishini e’lon qildi. Bu o‘zaro ishonchning yuqori darajasidan dalolat beradi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston – integratsiyaning lokomotivlari, mintaqada iqtisodiy o‘sishning asosiy katalizatorlari. Bir necha o‘n yil oldin “bolqonlashishi” prognoz qilingan Markaziy Osiyoni bugun AQSH Yevroosiyo yadrosi deb, Xitoy hamda G‘arb davlatlari “Yangi Ipak yo‘li” deb atamoqda, ko‘p qutbli dunyoning muhim elementi sifatida qo‘llab-quvvatlayapti.

Yakdillikni oshirayotgan muzokaralar

E’tiborlisi, mintaqa davlatlarining ovozlari bir ohangda yangrab, “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi muzokaralarning har bir yangi bosqichi yakdillikni oshirmoqda. Bunda, albatta, O‘zbekiston va Qozog‘istonning lokomotiv sifatidagi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Maslahat uchrashuvlari savdo to‘siqlarini bartaraf qilish, bojxona protseduralarini soddalashtirish hamda qonunlarni uyg‘unlashtirish orqali kamchiliklar ustida ishlanayotgani galdagi muvaffaqiyatlarga asos bo‘layotir.

Xalqaro munosabatlarning ushbu murakkab ko‘p vektorli tuzilmasida aynan O‘zbekiston – Qozog‘iston tandemi yangi iqtisodiy platformani yoki mintaqani rivojlantirishga qaratilgan mustahkam strategik alyansni shakllantiryapti. Albatta, bu bog‘liqlikning barqarorligi mamlakatlarimiz yetakchilari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar bilan ta’minlanadi.

Darvoqe, siyosatchilarga ularning amaliy ishlari bilan baho berishadi. Ikki mamlakat yetakchilari ham so‘z va ish birligi bilan nom qozongan. Ayniqsa, o‘zaro savdoni rivojlantirish, yangi o‘sish nuqtalarini topish, tovarlar nomenklaturasini kengaytirish, eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar o‘z samaralarini bermoqda. Yetakchilarning samimiy muloqotlari natijasidan ham bilish mumkinki, ikki davlatning iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi yangi iqtisodiy chorrahaning yanada aniqroq konturlarini shakllantirmoqda. O‘zaro savdo dinamikasi hamda yangi tashabbuslar ham bundan dalolat beradi.

➡ 3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 15-oktyabr

HAR BIR MUROJAAT ORTIDA INSON TAQDIRI MUJASSAM

1 Bugungi kunda vazirlik va idoralar, hokimliklar hamda mahalladagi mas’ullar fuqarolar muammolarini hal etish uchun zarur vakolat va imkoniyatlarga ega. Ko‘plab murojaatlar bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilayotganiga qaramay ayrim hollarda bir masala yuzasidan takroriy murojaatlar qilish, fuqarolarning turli idoralar o‘rtasida sarson bo‘lishi va mahalliy darajada hal etilishi mumkin bo‘lgan muammolar bilan poytaxtga kelish holatlari hamon uchramoqda.

Bu esa murojaatlar bilan ishlashda faqat ularni qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tizimli ravishda bartaraf etish va fuqarolarning har bir murojaati bo‘yicha aniq natijaga erishish zarurligini ko‘rsatadi.

Majlis davomida senatorlar har bir murojaat ortida insonning taqdiri, oilaning tashvishi borligi, bir xil masala ko‘plab murojaatlarda takrorlansa, ushbu masalaga aloqador davlat boshqaruvi, tegishli soha yoki mahalliy hokimiyat organlari faoliyati tahlil qilinib, buning kelib chiqish sabablarini aniqlash zarurligini qayd etishdi.

Muhokamada murojaatlarni birinchi bosqichda to‘liq hal qilmaslik, rasmiyatchilikka yo‘l qo‘yish va belgilangan muddatlarga rioya etmaslik kabi kamchiliklarni bartaraf qilish lozimligi ta’kidlandi.

Shu munosabat bilan eng ko‘p murojaat kelib tushayotgan vazirlik va idoralarga ularning sabablarini chuqur tahlil qilish, takroriy so‘rovlarga olib kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilash vazifasi qo‘yildi. Ularni ko‘rib chiqish muddatlarini buzgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish, ijro intizomini muntazam muhokama qilish, arz yo‘llovchilar bilan qayta aloqa o‘rnatish va ularning qoniqish darajasini baholash mexanizmlarini joriy etish zarurligiga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, Bosh prokuraturaga murojaatlar to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish, hududiy hokimliklarga sayyor va shaxsiy qabullarni samarali tashkil etish, mahalliy Kengashlarga esa ushbu masalani muntazam muhokama qilib borish vazifalari belgilandi.

Muhokama yakunida Oliy Majlis Senatining tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

«O‘ZBEKISTON EHTIROMI» ORDENI TA’SIS QILINADI

1 Shu munosabat bilan Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi oldidagi alohida xizmatlarni e’tirof etishga, chet davlatlar fuqarolarini taqdirlashga qaratilgan yangi davlat mukofoti – “O‘zbekiston ehtiromi” ordenini ta’sis etish to‘g‘risida qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Loyihaga ko‘ra, mazkur orden ikki darajada bo‘lib, “Oliy darajali O‘zbekiston ehtiromi” ordeni bilan O‘zbekiston Respublikasida har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini barqaror rivojlantirishda, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarni hal qilishda yuksak iroda namoyon etgan, tinchlik, xavfsizlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga hissa qo‘shgan, madaniy hamda iqtisodiy diplomatiya orqali xalqlar o‘rtasidagi yaqinlik va birdamlikni ta’minlash, xorijiy hamkorlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishda katta natijalarni qo‘lga kiritgan hamda O‘zbekiston Respublikasi oldidagi alohida e’tirof etilgan yuksak xizmatlari uchun xorijiy davlat va hukumat rahbarlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, shuningdek, xorijiy davlatlarning atoqli davlat va jamoat arboblari mukofotlanadi.

“O‘zbekiston ehtiromi” ordeni bilan O‘zbekiston Respublikasi xalqining yuksak hurmat va e’tirofi ramzi sifatida mamlakatimiz manfaatlarini xalqaro maydonda ilgari surish, O‘zbekiston Respublikasi bilan har tomonlama hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash, tinchlik, barqarorlik va o‘zaro ishonchni ta’minlashga qo‘shgan salmoqli hissasi, shuningdek, davlat va jamiyat rivojiga xizmat qilgan alohida sa’y-harakatlari uchun xorijiy davlat va jamoat arboblari, yirik kompaniyalar rahbarlari, chet davlatlarning O‘zbekistondagi elchilari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari, insonparvarlik va xayriya faoliyati bilan davlat hamda jamiyat manfaatlari uchun salmoqli hissa qo‘shgan xorijiy davlatlar fuqarolari mukofotlanadi.

Ulug‘bek ShERMATOV,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi:



– Mazkur ordenning ta’sis qilinishi xorijiy hamkorlarning O‘zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini munosib e’tirof etish, xorijiy hamkorlar bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatimiz manfaatlarini xalqaro maydonda faol ilgari surish, davlatlararo do‘stlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborildi.

“Xalq so‘zi”.

Uchrashuv

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

Avval xabar berilganidek, Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi mamlakatimiz parlament delegatsiyasi Berlin shahrida bo‘lib turibdi.

Kecha O‘zbekiston parlament delegatsiyasi va Germaniya Bundestagi Raisi o‘rinbosari Jozefina Ortleb o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy sohalarda tajriba almashish masalalariga e’tibor qaratildi.

Jozefina Ortleb O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib borayotganini ta’kidlab, parlament diplomatiyasining siyosiy muloqotni mustahkamlash hamda xalqaro muammolarga yechim topishdagi ahamiyatini ta’kidladi.

Shuningdek, muloqot davomida xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tenglikni ta’minlash hamda ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish masalalari muhokamaga tortildi. Bu borada qonunchilik tajribasini o‘rganish va parlamentlarning tegishli tuzilmalari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi sheriklik ham uchrashuvning muhim mavzularidan biri bo‘ldi. Tibbiy xizmatlar sifati va ommabopligini kuchaytirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Yakunda ikki mamlakat parlamentlarining tegishli qo‘mitalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirish va o‘zaro manfaatli yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirishga kelishib olindi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston delegatsiyasi Germaniya Bundestagining “Germaniya – Markaziy Osiyo” parlamentlararo hamkorlik guruhi vakillari bilan ham uchrashdi.

Muloqotda ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash, parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish va savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

Germaniya parlamenti a’zolari O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati ortib borayotgani, nemis investitsiyalari hajmi va kompaniyalar faoliyati kengayayotgani, shuningdek, turistik almashinuvlar jadal o‘sib borayotganini yuqori baholadi.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, suv resurslarini boshqarish, ta’lim va malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlikni chuqurlashtirishga alohida e’tibor berildi. O‘z navbatida, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi doirasidagi muloqotni yanada faollashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida 2027-2028 yillarga mo‘ljallangan parlamentlararo hamkorlikning “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, kelgusi yili Germaniya Bundestagi delegatsiyasining O‘zbekistonga tashrifini tashkil etish va uning doirasida Orolbo‘yidagi ekologik vaziyat bilan tanishish bo‘yicha yakdil fikr bildirildi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoning beshta davlati parlamentlari va Germaniya Bundestagi vakillari ishtirokida birinchi “Markaziy Osiyo – Germaniya” parlamentlararo forumini o‘tkazish masalasini ishlab chiqishga kelishib olindi.

Ochiq muloqot

OLIS HUDUDLARDAGI MUAMMOLAR ChETDA QOLMAYDI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumanida saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Unda Senatning yigirmanchi yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan qonunlar va masalalarning inson huquq hamda manfaatlari muhofazasi, iqtisodiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida batafsil ma’lumot berildi.

Ochiq muloqot davomida qonunchilikdagi yangiliklarning amaliy ahamiyati, fuqarolar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yuzasidan fikr almashildi, ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.

Shundan so‘ng Qo‘g‘ay mahallasida mas’ullar ishtirokida sayyor qabul tashkil etildi. Qabul davomida aholi tomonidan ichimlik suvi, elektr energiyasi va tabiiy gaz ta’minoti, ichki yo‘llarni ta’mirlash, obodonlashtirish, bandlik, ijtimoiy himoya hamda tibbiy xizmat bilan bog‘liq masalalar ko‘tarildi.

Fuqarolarning murojaatlari mas’ullar ishtirokida ko‘rib chiqilib, tegishli tushuntirishlar berildi. Qo‘shimcha o‘rganish va amaliy choralar ko‘rishni talab etadigan masalalar yuzasidan mutasaddilarga aniq vazifalar belgilandi. Ularning ijrosi nazoratga olinadigan bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

Senat qo‘mitasida

MILLIY TARBIYA TIZIMINI MUKAMMALLASHTIRISH MASALALARI MUHOKAMADA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasida yosh avlodni milliy tarbiya hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda mazkur tizimni mukammallashtirish, Milliy tarbiya modeli dasturini tasdiqlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish masalasi muhokama qilindi.

Normativ-huquqiy hujjat loyihasida ta’lim oluvchilarning yoshi va rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, tarbiya jarayonini qanday amalga oshirish mexanizmlari o‘z aksini topadi.

Muhokamada Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash, halollik, mas’uliyat, intizom, mehnatsevarlik, vaqtni qadrlash, oilaparvarlik, bag‘rikenglik, kitobxonlik, ilmga qiziqish, tabiat va jamoat mulkiga ehtiyotkorlik, mustaqil fikrlash tarbiya tizimining qadriyatlari bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda Ta’lim va ilm-fan vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, manfaatdor vazirlik va idoralar vakillarining milliy tarbiya tizimini takomiliga yetkazishga qaratilgan takliflari ko‘rib chiqildi.

Yakunda bildirilgan takliflar asosida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash tizimini takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishga kelishib olindi.

Senator va yoshlar

IMKONIYATLARDAN SAMARALI FOYDALANISH – DAVR TALABI

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “Sening tashabbusing – sening kelajaging” mavzuida Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi Malika Qodirxonova bilan talaba-qizlar uchrashuvi tashkil etildi.

Muloqotda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, zamonaviy ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ilmiy izlanishlar olib borish, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga e’tibor qaratildi.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda qizlarning chuqur bilim olishi, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi va o‘z g‘oyalarini amaliyotga tatbiq qilishi ularning kelajakdagi muvaffaqiyati bilan birga, jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim. Buning uchun yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish, mustaqil fikrlash va yangi tashabbuslarni ilgari surish alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchrashuvda, shuningdek, iqtidorli talaba-qizlarning ilm-fan, raqamli texnologiyalar va tadbirkorlik sohalaridagi faolligini oshirish, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan fikr almashildi.

Talaba-qizlar ta’lim, kasbiy rivojlanish va yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, batafsil javoblar oldi.

BAXTLI OILA – KUCHLI DAVLAT

12 – 14-oktyabr kunlari Belarus Respublikasining Polosk shahrida “Baxtli oila – kuchli davlat” mavzuida IV xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Unda Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi a’zosi Zumrad Bekatova ishtirok etdi.

Anjuman

Forumda oila institutini mustahkamlash, oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bolalar huquqlarini himoya qilish hamda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini kengaytirish masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

Tadbir doirasida O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilikdagi yangilanishlar haqida ma’lumot berildi. Xususan, oilaviy zo‘ravonlik va ta’qib uchun javobgarlik belgilangani, jabrlanganlarni himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilayotgani ta’kidlandi, o‘z navbatida, xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan tajribalar taqdim etildi.

Shuningdek, ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish hamda oilalarni qo‘llab-quvvatlashga oid qonunchilik ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish masalalariga e’tibor qaratildi.

“Xalq so‘zi”.

VAZIR DEPUTATLARNING SAVOLLARIGA JAVOB BERDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi hamda Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi tashabbusiga asosan navbatdagi “Hukumat soati” bo‘lib o‘tdi. Unda ko‘p kvartirali uy-joy fondini samarali boshqarish, shuningdek, aholini sifatli kommunal xizmatlar bilan ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

«Hukumat soati»

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri Sh. Hidoyatov deputatlarning savollariga javob berdi.

Vazir axborotida qayd etilganidek, bugungi kunda mamlakatimizda 1,6 milliondan ziyod xonadonlardan iborat 46 mingdan ortiq ko‘p kvartirali uy-joylar mavjud. Mazkur uylarning 42 mingdan ortig‘iga boshqaruv servis kompaniyalari, 700 dan ziyodiga uy-joy mulkdorlari shirkatlari, qolgan qismiga esa boshqa boshqaruv shakllari orqali xizmat ko‘rsatilmoqda. Sohada 18 mingdan ziyod xodimlar mehnat qilayotir.



Ta’kidlanganidek, ko‘p kvartirali uylarda mulkdorlar tomonidan to‘lanadigan majburiy to‘lovlarning maqsadli sarflanishi, boshqarish organlari faoliyatining hisobdorligi va moliyaviy shaffofligini ta’minlash sohadagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xususan, Prezidentimizning 2026-yil 5-fevraldagi tegishli qarorida 1-iyuldan boshlab Toshkent shahrida, 2027-yildan boshlab barcha hududlardagi ko‘p kvartirali uylarda mulkdorlarning umumiy yig‘ilishlarini tashabbus qilish, shartnomalar tuzish, boshqaruvchilar tomonidan hisobotlar taqdim etish faqat billing tizimi orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Hozir mazkur onlayn yig‘ilishlarni yagona tartib asosida o‘tkazish maqsadida umumiy yig‘ilish bayonining namunaviy shakli ishlab chiqildi va billing tizimiga joylashtirildi.

Mazkur tizim orqali har bir ko‘p kvartirali uy bo‘yicha tushum va xarajatlar, bajarilgan ishlar, qarzdorlik, murojaatlar hamda ularning ijrosi haqidagi ma’lumotlarni onlayn kuzatish imkoniyati yaratilgan.

Sohadagi yana bir muhim vazifa – uy-joylarning texnik holatini tizimli baholash va mavjud muammolarni barvaqt aniqlashdan iborat. “Turarjoy” milliy idoralararo platformasi orqali ko‘p kvartirali uylarning holati toifalarga ajratilib, ular bo‘yicha zarur ta’mirlash va tiklash ishlarini rejalashtirish mexanizmi shakllantirilmoqda.

Vazir axborotida liftlar xavfsizligi masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tildi. “Xavfsiz lift” yagona idoralararo platformasi ishga tushirildi. Bu tizim liftlarning texnik holatini nazorat qilish, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini baholash va aholi xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi.

Axborotda energiya samaradorligini oshirish masalalariga ham e’tibor qaratildi. Xorijiy tajriba asosida ko‘p kvartirali uylarni issiqlik jihatdan samarali saqlash, fasadlarni zamonaviy materiallar bilan qoplash, energiya tejovchi uskunalardan foydalanish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. 2024 – 2026-yillarda qariyb 1,8 mingga yaqin uylarning fasadlari bazalt materiallari bilan qoplangan. Shu bilan birga, ko‘p kvartirali uylar atrofini obodonlashtirish, bolalar maydonchalari, piyodalar yo‘laklari, sug‘orish tarmoqlari va jamoat infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Joriy yilda mazkur maqsadlar uchun 520 milliard so‘m yo‘naltirildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘p kvartirali uylar atrofida yashil hududlarni kengaytirishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Ko‘p kvartirali uylarning tutash hududlarida yashil bog‘larni tashkil etish bo‘yicha 54 ta tuman, shahar kengashlari qarorlari bilan yer maydonlari belgilandi. Ekilgan daraxt va butalarni yashil bog‘ tashabbuskorlari – pudrat tashkiloti tomonidan parvarish qilish tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilgan.

Muhokama davomida siyosiy partiyalar fraksiyalari a’zolari ham sohadagi dolzarb



masalalar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Xususan, **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** vakillari ko‘p kvartirali uy-joylar boshqaruv kompaniyalari o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish, xizmat sifati past bo‘lgan kompaniyalarni bozor mexanizmlari orqali saralash masalalarini ko‘tardi. Shuningdek, sohaga yangi, salohiyatli tadbirkorlik subyektlarining kirib kelishini rag‘batlantirish masalasiga e’tibor qaratildi.

“Milliy tiklanish” DP fraksiyasi tomonidan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan quriladigan ijtimoiy soha obyektlari, ayniqsa, maktablarni loyihalashdagi kamchiliklar, shuningdek, arxitektura-shaharsozlik kengashlari tomonidan loyihalarni ko‘rib chiqishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalarga urg‘u berildi. Bunda loyihalash jarayonida xorijiy tajribani o‘rganish va undan samarali foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

“Adolat” SDP fraksiyasi tomonidan ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlarda zamonaviy va xavfsiz bolalar hamda sport maydonchalarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqish, ularning texnik holati, xavfsizligi va keyinchalik muntazam saqlanishini ta’minlash masalalariga alohida urg‘u berildi.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi vakillari ko‘p qavatli uylarda yashayotgan keksa fuqarolar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va bolali oilalar uchun liftlarning uzluksiz hamda xavfsiz ishlashini ta’minlash, nosoz liftlarni kapital ta’mirlash yoki almashtirish muddatlarini belgilash, shuningdek, elektron monitoring tizimining amaliy samaradorligini oshirish masalalarini ko‘tardi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi deputatlari esa ko‘p kvartirali uylar atrofida ekilayotgan daraxt va buta ko‘chatlarining saqlanib qolishi, ularni sug‘orish va parvarishlash ishlari ustidan doimiy nazoratni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratdi. Shuningdek, nobud bo‘lgan ko‘chatlarni qayta ekish uchun mas’ul tashkilotlarning javobgarligini kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Vazir deputatlarning savollariga javob berib, bildirilgan takliflar sohadagi mavjud muammolarni bartaraf qilish, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va aholiga ko‘rsatilayotgan kommunal xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

“Hukumat soati” yakunida ko‘p kvartirali uy-joy fondidan samarali foydalanish, boshqaruv tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish, mulkdorlarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, bolalar va sport maydonchalarining xavfsizligini ta’minlash, lift xo‘jaligini modernizatsiya qilish, shuningdek, uy-joylar atrofini ko‘kalamzorlashtirish hamda obodonlashtirish ishlarining natijadorligini oshirishga kelishib olindi. Bunda sohada ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlash, aholi murojaatlariga tezkor munosabat bildirish hamda belgilangan vazifalar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

“Xalq so‘zi”.

Andijon viloyatining Xonobod shahri, Buxoro viloyatining Olot tumani, Surxondaryo viloyatining Termiz tumani, shuningdek, Toshkent viloyatining Yangiyo‘l va Ohangaron tumanlari transport-logistika sohasiga ixtisoslashtiriladi.

Forum

XOTIN-QIZLAR XALQARO MULOQOT MAYDONLARIDA

O‘zbekiston parlamenti delegatsiyasi Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida o‘tkazilayotgan Butunjahon ayol parlament a’zolari forumida ishtirok etmoqda.

Delegatsiya a’zolari forum doirasida qator xalqaro muloqot maydonlarida xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish, ayollar yetakchiligini qo‘llab-quvvatlash hamda ushbu jarayonda fuqarolik jamiyati va xususiy sektorning o‘rni kabi masalalar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Jumladan, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi Orzigul Qozixonova hamda Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Sayyora Abdikarimova forumning parallel panel sessiyalarida ma’ruza bilan qatnashdi.

Shuningdek, delegatsiya a’zolari Buyuk Davlat Xurali deputati, Mo‘g‘uliston va O‘zbekiston o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha parlament guruhi raisining o‘rinbosari Sagaanxuugiyn Monxbat bilan uchrashdi.

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, parlamentlararo aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish, shuningdek, savdo-iqtisodiy, ta’lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuvda parlamentlararo guruhlar faoliyatini jonlantirish, sohaviy qo‘mitalar o‘rtasida muntazam muloqot va tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi hamda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

“Xalq so‘zi”.

Ishchi guruhlarda

MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISH YANADA TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksini tasdiqlash haqida”gi qonun loyihasi dastlabki tarzda ko‘rib chiqildi.

Deputatlar, Oliy sud vakillari, mutaxassis-ekspertlar ishtirok etgan ishchi guruh yig‘ilishida ta’kidlanganidek, qonun loyihasida ma’muriy sud ishlarini yuritishning vazifalari yanada aniqlashtirilmoqda. Ma’muriy organlar faoliyati ustidan samarali sud nazoratini ta’minlash, huquqni qo‘llash amaliyotini inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini hurmat qilish kabi konstitutsiyaviy prinsiplarga muvofiq shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda.

Shuningdek, loyihada sudning faol ishtiroki prinsipi ham kuchaytirilmoqda. Xususan, sud tomonidan da’vogarga arizadagi formal kamchiliklarni bartaraf etish, talablarni aniqlashtirish va munosib da’vo turini tanlashda ko‘maklashish, ishning haqiqiy holatlarini har tomonlama va xolisona tekshirishga qaratilgan normalar nazarda tutilyapti.

Qonun loyihasida taklif etilayotgan normalarning mazmun-mohiyati, ularning fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali samarali himoya qilishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratildi.

Ishchi guruh a’zolari tomonidan qonun loyihasining har bir normasini huquqni qo‘llash amaliyoti nuqtayi nazaridan puxta tahlil qilish, ularning aniq va bir xilda qo‘llanilishini ta’minlash, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Muhokama yakunida ilgari surilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qonun loyihasini maromiga yetkazish hamda Qonunchilik palatasining majlisida birinchi o‘qishda ko‘rib chiqishga puxta tayyorlash bo‘yicha tegishli vazifalar belgilab olindi.

Asalarichilik:

HUQUQIY POYDEVOR VA KELGUSIDAGI VAZIFALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi tomonidan asalarichilik sohasida qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazildi.

Ma’lumki, 13-oktyabr kuni yaylovlar degradatsiyasining oldini olish, suv ta’minotini yaxshilash hamda ulardan samarali foydalanish yuzasidan Prezidentimizga qilingan taqdimotda yaylovlardan boshqa tarmoqlar bilan bir qatorda asalarichilik yo‘nalishida ham foydalanish muhim ekani qayd etildi.

Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, Yer yuzidagi oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat qismi aynan asalarilarning gullarni changlatishiga bog‘liq. Asalarilar yordamida changlantirilgan bog‘lar va ekin maydonlarida hosildorlik bir necha barobar oshadi. Shu bilan birga, asalari bioxilmaxillikni saqlash uchun ham muhim bo‘lib, ular yovvoyi o‘simliklarning ko‘payishini ta’minlab, ekotizimlar, o‘rmonlar va yashil hududlarning yashab qolishiga xizmat qiladi.

Ishtirokchilar tomonidan jahon standartlariga muvofiq asal mahsulotlari sifatini belgilash bo‘yicha maxsus laboratoriyalarni yanada ko‘paytirish, uni zamonaviy yuqori texnologiyali, energiya tejovchi uskunalar bilan jihozlash va tarmoqni malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash ishlarini yanada jadallashtirish lozimligi qayd etildi.

Asalarichilik tarmog‘ini rivojlantirish, bu borada davlat organlari vazifalarini belgilash, asalarilar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani yanada mustahkamlash bo‘yicha takliflar berildi.

Shu bilan birga, amaldagi qonun hujjatlarini xatlovdan o‘tkazish, xorijiy mamlakatlarning asalarichilik yo‘nalishidagi ilg‘or tajribalarini o‘rgangan holda qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish sohani yanada barqaror rivojlantirishga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga, bioxilma-xillikni saqlashning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Yakunda asalarichilik faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

“Xalq so‘zi”.

Yalpi majlisda muhokama qilingan

HAMKORLIKDAN BARQAROR TARAQQIYOT SARI

Bugungi murakkab va tez o‘zgarayotgan dunyoda biror davlatning taraqqiyotini tashqi olamdan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Iqlim o‘zgarishi, energetik xavfsizlik, transmilliy jinoyatchilik, giyohvandlik, migratsiya, transport va iqtisodiy bog‘liqlik kabi masalalar davlatlarning ko‘proq birgalikda harakat qilishini taqozo etmoqda.

Shu ma’noda, Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisida muhokama markazida bo‘lgan qonunlar ham mazmun-mohiyati jihatdan bir-biridan farq qilsa-da, ularni birlashtirib turuvchi umumiy jihat bor. Bu mamlakatimiz-ning xalqaro hamkorlikni huquqiy asosda mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga hissa qo‘shish, shu bilan birga, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan yondashuvidir.

“Yashil” energetika – kelajak iqtisodiyotining muhim omili

Senat muhokamasiga kiritilgan masalalardan biri – “Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Toza energiya markazi Ustavini (2021-yil 27-noyabr, Ashxobod) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun bilan bog‘liq bo‘ldi.

Global iqlim o‘zgarishi, energetik xavfsizlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari bugun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Shu nuqtayi nazardan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va energiya samaradorligini oshirish barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘lyapti.

Mazkur Ustavning asosiy maqsadi ham IHTga a’zo davlatlarda qayta tiklanuvchi energiya va uning samaradorligini rivojlantirish, milliy institutlar salohiyatini oshirish hamda past uglerodli loyihalar uchun moliyaviy va texnik resurslarni jalb etishdan iborat. Shuningdek, ilmiy tadqiqot va ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish, tajriba hamda sohaga oid statistik ma’lumotlarni almashish, kadrlar va institutlar salohiyatini oshirish uchun ham imkoniyat yaratishdir.

Mintaqa taqdiri – umumiy manfaatlar mushtarakligida

Xalqimizda “Qo‘shning tinch – sen tinch” degan hikmatli naql bor. Albatta, bu bejiz emas. Ota-bobolarimiz azal-azaldan qo‘ni-qo‘shnichilik tartib-taomillariga qat’iy rioya qilib kelgan. Bu an’ana zamonaviy dunyoda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Aksincha, endi u bir oila, mahalla qamrovidan mamlakat, mintaqalar darajasiga ko‘tarildi. Yalpi majlisda muhokamadan o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy o‘rtasida abadiy yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish bilan bog‘liq qonun ana shu haqiqatning isboti. 2025-yil 17-iyun kuni Ostona shahrida imzolangan hujjat Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikning huquqiy va institutsional asoslarini belgilaydi.

Hujjatning qamrovi ancha keng. Unda savdo, investitsiya, transport va infratuzilma, energetika, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, fan va texnika sohalarida hamkorlik yo‘nalishlari belgilangan. Ayniqsa, transport-kommunikatsiya bo‘yicha sheriklik imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

“Zamonaviy hamkorlik” tushunchasi faqat iqtisodiyot yoki transport bilan cheklanmasdan, raqamli infratuzilma, optik tolali aloqa tarmoqlari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi yangi yo‘nalishlar ham hujjatda o‘z aksini topgan. Bu esa mintaqaviy hamkorlikning mazmuni va ko‘lami tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Yangi tahdidga birgalikdagi yondashuv

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishining nafaqat inson salomatligi, balki dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga keltirgan zarari ham nihoyatda katta. Bu O‘zbekiston uchun ham millat genafondini saqlash yo‘nalishida muhim masala. Shu bois Senat yalpi majlisida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar o‘rtasida Giyohvandlikka qarshi kurashish markazi to‘g‘risidagi Bitimni ratifikatsiya qilish masalasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, zamonaviy jinoiy guruhlar yangi usullardan, jumladan, internet makonidan ham foydalanayotgani bu sohada davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish zaruratini oshiryapti. Markaziy Osiyo davlatlari uchun esa inson salomatligi va milliy xavfsizlik bilan bog‘liq qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi besh yilda mintaqada yangi psixofaol moddalar musodarasi 74 baravar o‘sgan. 2024-yilda giyohvandlik vositalarining musodarasi 2023-yildagiga nisbatan 73,5 foizga, shundan opiatlar 157,2 foiz, kanabinoidlar 75,3 foizga oshgan.

Mazkur Bitimning amaliy ahamiyati SHHT doirasida narkotik moddalar va ular prekursorlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi maxsus organ – Giyohvandlikka qarshi kurashish markazini tashkil etishni nazarda tutadi.

Uning vazifalari keng qamrovli: tezkor-profilaktik tadbirlarni muvofiqlashtirish, transmilliy jinoiy guruhlar faoliyatini aniqlash, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi choralar ko‘rish, xalqaro qidiruv, qo‘shma operatsiyalar, ma’lumot almashish va mutaxassislar malakasini oshirish shular jumlasidan.

Inson huquqi – bosh mezon

Inson uchun eng noxush holatlardan biri – ozodligi va erkinligining cheklanishi, ya’ni qamoq jazosiga hukm qilinishi. Bu jarayon uning o‘z Vatanidan tashqarida kechishi esa mahkum va oila a’zolarining iztiroblarini ikki karra oshiradi. O‘z yurtida jazo o‘tayotgan mahkum yiliga bir-ikki marta yaqinlari bilan uchrashishi, jo‘natmalar olib turishi mumkin. Xorijda esa buning imkoni yo‘q. Shu ma’noda, mamlakatlar o‘rtasida mahkumlarni almashish bo‘yicha bitimlar imzolanadiki, maqsad – imkon qadar xorij qamoqxonasida saqlanayotgan fuqaroni o‘z yurtiga olib kelish. Jazoni o‘z Vatanida o‘tash imkonini berish.

Bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan mahkumlar jazo o‘tashni davom ettirishi uchun fuqaroligi bo‘lgan davlatga o‘tkazish bo‘yicha 11 ta mamlakat – Ozarbayjon, Birlashgan Arab Amirliklari, Gruziya, Italiya, Latviya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Turkmaniston, Ukraina, Eron bilan xalqaro shartnomalar imzolangan. Senat yalpi majlisi kun tartibidan o‘rin olgan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o‘rtasida mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi Bitimni (Islomobod, 2026-yil 5-fevral) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun yuqoridagi jarayonlarning davomi deyish mumkin.

Bu hujjatda inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan kafolatlar ham alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, mahkum topshirishning mohiyati va huquqiy oqibatlari haqida yozma ravishda xabardor qilinishi, rozilik ixtiyoriy va uning oqibatlarini to‘liq anglagan holda berilishi belgilangan. Shuningdek, tayinlangan jazo og‘irlashtirilmasligi va ayni bir jinoyat uchun takroran javobgarlikka tortishga yo‘l qo‘yilmasligi nazarda tutilgan.

Bu normalarning ahamiyatini bir jihat bilan izohlash mumkin: huquqiy hamkorlik qanchalik mustahkam bo‘lmasin, uning markazida inson taqdiri va huquqlari turgandagina u o‘z mazmuniga ega bo‘ladi.

Masalalar turli – maqsad yagona

Garchi yuqorida tilga olingan masalalar turli yo‘nalishlarda bo‘lsa-da, ularga bir butun jarayon sifatida qaralsa, mohiyat oydinlashadi.

Bir tomonda – toza energiya va uning samaradorligi hamda ekologik barqarorlik. Ikkinchi tomonda – savdo, investitsiya, transport va raqamli taraqqiyot. Yana bir yo‘nalish – giyohvandlik va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘lsa, ikkinchi bir qutbda mahkumlarning huquqlarini ta’minlash va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar. Garchi yo‘nalishlar turlicha bo‘lsa-da, ularning barchasi zamonaviy davlatlararo munosabatlarning bir haqiqatini ko‘rsatadi: barqaror taraqqiyot, xavfsizlik va inson manfaatlarini ta’minlash tobora ko‘proq hamkorlikni talab etmoqda.

Senatdagi muhokamalar esa ana shu hamkorlikning huquqiy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan hujjatlarning mazmun-mohiyatini ochib berdi. Chunki bugungi shartnomalar va bitimlar faqat qog‘ozdagi kelishuvlar emas. Ular ortida transport yo‘laklari, yangi investitsiyalar, toza energiya loyihalari, xavfsizlik mexanizmlari, tajriba almashinuvi va eng muhimi, inson manfaatlariga daxldor jarayonlar turibdi.

Shu ma’noda, Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisida muhokama qilingan masalalarni mamlakatning xalqaro hamkorlik geografiyasi kengayib, uning mazmuni esa yangi – iqtisodiy, texnologik, ekologik, xavfsizlik va insonparvarlik mezonlari bilan boyib borayotganining huquqiy ifodasi sifatida baholash mumkin.

Hamroqul QARSHIYEV
(“Xalq so‘zi”).

O‘zbekiston – Qozog‘iston:

O‘ZARO ISHONCHGA TAYANGAN STRATEGIK SHERIKLIK

1

Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi yillarda ikki mamlakat o‘rtasidagi yillik tovar aylanmasi barqaror ravishda 4 mlrd. dollardan oshdi. Shu bilan birga, hali o‘zaro savdoni oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ularni yuzaga chiqarish uchun o‘zaro tovar aylanmasini ko‘paytirish dasturi ishlab chiqilgani tahsinga sazovor. Galdagi vazifa – ikki tomonlama savdo hajmini yiliga 10 mlrd. dollarga yetkazishdan iborat.

Yaqinda ilgari surilgan O‘zbekiston va Qozog‘iston milliy to‘lov tizimlarini o‘zaro bog‘lash tashabbusi mana shu maqsadga erishish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ladi. Nega deganda, yagona to‘lov tizimi – turli banklar, kartalar, mobil ilovalar va milliy platformalar o‘rtasida to‘lovlarni o‘zaro qabul qilish imkonini beradigan infratuzilmadir. U, odatda, banklararo to‘lovlar, yagona yoki o‘zaro tan olinadigan QR-kodlar, tezkor pul o‘tkazmalari, yagona kliring hamda hisob-kitob mexanizmi, elektron identifikatsiya, ma’lumotlarni himoya qilish tizimi, valyuta konvertatsiyasi, iste’molchi huquqlarini himoya qilish kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Muhimi, yagona tizim yagona kompaniya yoki bitta bank degani emas. U turli ishtirokchilarni umumiy texnik standartlar asosida birlashtiruvchi ochiq infratuzilmaga aylanishi mumkin.

Yirik qo‘shma loyihalar qatorida “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini bayroqdor loyiha sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin. U taxminan 100 gektar maydonda ikki tomonlama sanoat zonasini yaratib, tibbiyot buyumlari, PVX mahsulotlari, tomchilatib sug‘orish tizimlari, paxtani qayta ishlash, to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Bu, o‘z navbatida, mintaqaviy qo‘shilgan qiymat zanjirlarining yangi yig‘ish nuqtasi hisoblanadi. O‘zbekiston va Qozog‘iston



qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham hamkorlikni kengaytirish, o‘zaro oldi-sotdidan ko‘ra, chuqur qayta ishlashga o‘tishni kuchaytirishni rejalashtirmoqda.

Qo‘shma investitsiya platformasi va transport kommunikatsiyasi

Aytish kerakki, Oliy davlatlararo kengash qarori bilan kamyob hamda noyob yer metallari geologiyasi va qazib olish bo‘yicha ishchi guruh tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu zamonaviy dunyoning “yangi nefti” bo‘lib, unga investorlarning qiziqishi yuqori. Qolaversa, kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlar qatorida sun’iy intellektni rivojlantirish, suv-energetika va tranzit-transport sohalari ham tanlab olingan. Hamkorlikni kuchaytirish maqsadida qo‘shma investitsiya platformasini yaratish bo‘yicha Doiraviy kelishuv imzolangani mazkur yo‘nalishlardagi ishlarga yangi sur’at bag‘ishlashi, shubhasiz.

2024-yil may oyida Xitoy – Qozog‘iston – O‘zbekiston (Janubiy transport koridori) yo‘nalishi bo‘yicha konteyner tashishlarni avtomatik boshqarish uchun “Uzluksiz tranzit” ishga tushirildi. Bugungi kunda bu tajriba boshqa yo‘nalishlarga ham tatbiq etilyapti.

Transport kommunikatsiyasi – hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri. Turkiston – Chimkent – Toshkent tezyurar temir yo‘l magistrali qurilishi jadal davom etyapti. Yangi magistral ikki qardosh mamlakatni birlashtiruvchi yagona sayyohlik yo‘nalishiga aylanishi kutilyapti. Natijada mamlakatlarning turistik salohiyati sezilarli darajada oshadi.

Qolaversa, avtomobil va temir yo‘llar o‘zaro integratsiyalashgan. Ushbu muhim tarmoq uchinchi davlatlar uchun tranzit vazifasini ham bajaradi. Bu boradagi istiqbolli loyihalar qatorida Uchquduq – Qizil-O‘rda uchastkasida yangi yo‘lak barpo etilayotgani, Turkiston – Toshkent tezyurar temir yo‘li ishga tushirilishini alohida ta’kidlash lozim. Avtomobilda hamda temir yo‘l orqali yuk tashish hajmi ortyapti. Ikki davlat o‘rtasidagi havo qatnovida yangi yo‘nalishlar ochilayotir.

O‘zbekiston va Qozog‘iston hukumatlari chegaradagi infratuzilmani modernizatsiyalash, jumladan, o‘tkazish punktlarini kengaytirish hamda logistika markazlarini yaratish bo‘yicha faol choralar ko‘rmoqda. Biroq bu yechimning faqat bir qismi. Muvaffaqiyat nafaqat o‘tkazish qobiliyati bilan, balki bojxona rasmiylashtiruvi vaqti va murakkabligining real qisqarishi bilan o‘lchanadi. Mamlakatlarimiz ham bu yo‘nalishda sinxronlashtirilmoqda, desak, mubolag‘a emas.

Yaqinda ikki davlatning bojxona xizmatlari vakilliklarini ochish to‘g‘risida hukumatlar-aro kelishuv imzolandi. Bu va boshqa chora-tadbirlar ikki mamlakatning transport hamda logistika hamkorligidagi to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Joriy yilning o‘tgan to‘qqiz oyi yakunlariga ko‘ra, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi temir yo‘l tashishlar hajmi 15 foizdan ko‘proqqa o‘sib, 22 mln. tonnadan oshdi. Tarif siyosatini birgalikda takomillashtirish, yuklarni tashish sharoitlarini yaxshilash, chegaradagi o‘tkazish punktlarini modernizatsiyalash va bojxona tizimlarini raqamlashtirishni davom ettirishga kelishib olindi. Bu qadamlar mamlakatlarimizning transport aloqalarini mustahkamlash uchun sharoit yaratadi.

Iqtisodiy tuzilma integratsiyasi va manfaatlar uchburchagi

Shuni ham ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo transport tarmog‘iga Afg‘oniston ham qo‘shilishi mumkin, bu esa Janubiy Osiyoga darvozalarni ochishga imkon beradi. Qolaversa, Markaziy Osiyoga chegaralar perimetri bo‘ylab barqarorlik konturi kerak. Afg‘oniston beqarorlik manbaiga aylanishi yoki mintaqaviy iqtisodiy tuzilmaga integratsiyalashishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, Olma-otada Markaziy Osiyo davlatlari va Afg‘oniston uchun Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha BMTning mintaqaviy markazi ochilishini muhim diplomatik g‘alaba, deyish mumkin. O‘zbekiston hamda Qozog‘iston Sharq va G‘arb, Shimol hamda Janub uchrashadigan Yevroosiyo mamlakati hisoblanadi. Ularning ko‘prik roli Afg‘oniston atrofidagi vaziyatda aniq ko‘rinadi. 2021-yilda Kobulda rejim o‘zgargandan so‘ng, O‘zbekiston – Qozog‘iston insonparvarlik masalalarini hal etish uchun yangi Afg‘oniston rahbariyati bilan aloqalarni saqlab qoldi, boshqa tomondan esa yordam ko‘rsatish hamda inqirozning oldini olish bo‘yicha AQSH, YEI, BMT bilan faol hamkorlik qildi.

Qozog‘iston va O‘zbekiston minglab rishtalar, umumiy mintaqaviy kun tartibi hamda madaniy “belbog‘lar” bilan chambarchas bog‘langan. Davlat rahbarlarining qat’iy irodasi esa bu aloqalarni barcha yo‘nalishda mustahkamlaydi.

– Qozog‘iston Prezidenti sifatida men O‘zbekiston bilan ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berishni o‘z burchim, deb bilaman. Shuni ta’kidlamoqchimanki, turli “ekspertlar”ning har xil bo‘htonlariga qaramay, Qozog‘iston hamda O‘zbekiston hech qachon raqib va hatto musobaqalashuvchilar emas, balki strategik hamkorlar, taraqqiyot yo‘lidan birgalikda borayotgan ishonchli ittifoqchilardir, xalqlarimiz bir-biriga samimiy hurmat ko‘rsatadigan haqiqiy birodarlar, yaqin do‘stlar, – degan edi Qosim-Jomart Toqayev Xivada o‘tkazilgan muzokaralarda.

O‘zaro sa’y-harakatlarni birlashtirish va iqtisodiyotni tuzilmaviy modernizatsiya qilishning aniq rejasi mamlakatlarimiz munosabatlarida sinergiyani yaratadi. Sanoat kooperatsiyasi masalalari, chegara savdo infratuzilmasini yaratish hamda transport aloqasi – O‘zbekiston va Qozog‘istonning strategik salohiyati aynan mana shu o‘zaro manfaatlar uchburchagida yashiringan. Tranzit-industrial karkasni shakllantirish bu nafaqat transport koridorlarining logistik xizmatlari, balki mintaqaviy qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratishdir.

Aslida tarix, din, madaniyat, til, an’analarning yaqinligi siyosiy va iqtisodiy integratsiyaga olib keldi. Hozirgi kunda “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”, “Strategik sheriklik to‘g‘risida”, “Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida” hamda “Davlat chegarasini demarkatsiya qilish to‘g‘risida”gi davlatlararo huquqiy hujjatlar amal qilyapti. Har yili oliy darajadagi ikki tomonlama tashriflar, uchrashuvlar muntazamlik kasb etgan.

Erishilgan kelishuvlar hamda imzolangan bitimlar o‘zaro sheriklikni aniq mazmun bilan boyitish, qo‘shma loyihalar uchun yangi ufqlar ochish, qardosh davlatlarning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratishi, shubhasiz.

Alimbek JUMANOV,
Shimkent universiteti professori,
Qozog‘iston Milliy tabiiy fanlar akademiyasi akademigi.

2027-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvargacha umumiy daromadining kamida 60 foizini issiqxona faoliyatidan olgan tadbirkorlik subyektlariga yuridik shaxslar uchun yer va mol-mulkka solinadigan soliq stavkalari 50 foizga kamaytiriladi.

O‘ZBEKISTONNING MA’RIFIY UYG‘ONISH YO‘LI

Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi Toshkent sessiyasida so‘zlangan nutqdan uchinchi Renessans tafakkuriga

2016-yil 18-19-oktyabr kunlari Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi bo‘lib o‘tgandi. Sessiya ishida Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo 26 davlat tashqi ishlar vazirlari, shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi, Islom taraqqiyot banki prezidenti, tashkilotning yordamchi va maxsus muassasalari bosh direktorlari, AQSH, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Shveysariyaning IHTdagi maxsus vakillari hamda BMT, YXHT, Arab davlatlari ligasi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash kabi qator tuzilmalar vakillari qatnashgan.

Nuqtai nazar

O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev sessiyaning ochilish marosimida ishtirok etib, nutq so‘zlagan. U o‘z nutqida “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” mavzusini sessiyaning asosiy shiori va ustuvor g‘oyasi deb e’lon qilgan.

Toshkentda yangragan o‘sha nutqning tarixiy salmog‘ini bugun, o‘n yillik masofadan turib, yanada teran anglash mumkin. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi O‘zbekistonning musulmon dunyosi bilan muloqotida muhim voqea bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan qarashlar esa keyingi yillarda ajdodlar merosini o‘rganish, ma’rifiy muassasalar barpo etish va milliy o‘zlikni mustahkamlash ishlarida o‘z aksini topdi.

Tarixiy burilish yangi nigohdan boshlanadi. Xalq asrlar davomida shakllantirgan va asrab kelgan tarixiy-madaniy va ilmiy merosga davlatning munosabati qanday bo‘ladi? Uni o‘tmishning yodgorligi sifatida e’zozlash bilan cheklanadimi yoki kelajakni qurishda ishtirok etishga qodir ma’naviy va intellektual kuch sifatida ishga soladimi? 2016-yilgi Toshkent nutqining bugungi ahamiyati aynan shu savolga javobda mujassam.

O‘sha kuni minbarga chiqqan Shavkat Mirziyoyev mamlakat siyosiy hayotida yangi bosqich boshlanayotgan, jamiyat kelajak yo‘lini anglashga intilayotgan bir paytda, ta’lim, ma’rifat, tarixiy xotira va muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyati haqida so‘zladi. Bu mavzular nutqda bir-biridan ajralgan yo‘nalishlar emas, xalqning ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan yaxlit qarash sifatida namoyon bo‘ldi.

Nutqning ramziy qudrati shunda ediki, unda Buxoriy va Xorazmiy, Termiziy va Beruniy, Moturidiy va Ulug‘bek merosi bir tarixiy makonda uchrashdi. Diniy ilmlar bilan aniq fanlar, e’tiqod bilan tafakkur, milliy xotira bilan umuminsoniy taraqqiyot o‘rtasidagi uzviylik yana bir bor jahon hamjamiyatiga ko‘rsatildi.

Bugun bu nutqni keyingi o‘n yil mobaynida amalga oshirilgan islohotlarning muhim g‘oyaviy manbalaridan biri sifatida o‘qish, o‘rganish mumkin. Uning dasturiy mazmuni keyin bunyod qilingan ilmiy markazlar, yo‘lga qo‘yilgan tadqiqotlar va kengaygan xalqaro aloqalarda o‘z ifodasini topdi. Toshkentda aytilgan so‘zlar mamlakatning ma’rifiy qiyofasini yangilash yo‘lida amaliy mazmun kasb etdi.

Tarixiy davomiylik va yangi ko‘lam

Sobiq ittifoq davrida islom olami bilan aloqalardan uzib qo‘yilgan O‘zbekiston mustaqillik yillarida ushbu rishtalarni tiklashga kirishdi. 1996-yilda mamlakat IHTga a’zo bo‘ldi, Islom taraqqiyot banki va ta’lim, fan, madaniyat sohasidagi islom xalqaro institutlari bilan hamkorlik qila boshladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida diniy hayotni tiklash, ziyoratgohlarni obod etish va diniy ta’limni rivojlantirish borasida muhim ishlar bajarildi. 1999-yilda Toshkent islom universitetining ochilishi ham shu jarayonning bir qismi edi.

Bu o‘zgarishlarning tarixiy zaminini unutmaslik kerak. Mustamlaka davridagi ateistik siyosat diniy xotiraga og‘ir zarba bergan, avlodlar o‘rtasidagi ilm va ma’rifatni uzatish zanjirini zaiflashtirgan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi ekstremizm va terrorizm tahdidlari esa diniy sohaga xavfsizlik nuqtayi nazaridan qarashni kuchaytirgandi. Bunday sharoitda merosning tarbiyaviy va intellektual imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga o‘tish oson kechmadi.

IHT va uning tuzilmalari bilan hamkorlikning iqtisodiy, ilmiy-ma’rifiy va sivilizatsion imkoniyatlaridan mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida kengroq va tizimliroq foydalanishga kirishildi.

2016-yilgi nutqni shu murakkab tarix fonida o‘qisak, undagi yangi urg‘u ravshanlashadi. Islomiy merosni o‘rganish jamiyatning ma’naviy barqarorligiga, yoshlarning bilimli bo‘lishiga va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishga xizmat qilishi kerak. Xavfsizlik masalalari bilan ma’rifiy vazifalar bir-birini to‘ldirishi lozim. Keyingi yillarda tashkil etilgan ilmiy muassasalar va qabul qilingan qarorlar bu yo‘nalishning amaliy ifodasi bo‘ldi.



Millatni birlashtiruvchi ma’naviy tayanch

Buyuk islohotlar xalqning ichki ishonchiga tayanadi. Inson o‘zining va mehnatining qadrini, farzandining istiqbolini va o‘z yurtining jahondagi o‘rnini his qilganida kelajakka boshqacha qaraydi. Milliy tarixning shonli sahifalari ana shu ishonchni oziqlantiradi. Ular xalqqa buyuk o‘tmish va ajdodlardan g‘ururlanish bilan birga o‘z salohiyatiga ishonch tuyg‘usini mustahkamlashga yordam beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yilgi nutqida allomalar nomining ehtirom va faxr bilan tilga olinishi shu ma’noda alohida ahamiyatga ega. Buxoriyning hadis ilmidagi xizmatlari, Moturidiy ta’limotida zakovatning o‘rni, Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy va Ibn Sinoning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi nutqda umumiy ilmiy-ma’rifiy meros sifatida ko‘rsatildi. Milliy g‘ururning tayanchi shu merosni bilish, anglash va avlodlarga yetkazish ekani ta’kidlandi.

Buyuk ajdodlar nomini aytish oson. Ularning tafakkur darajasiga munosib bo‘lish esa mehnat talab qiladi. Buxoriy merosini e’zozlash manbaning ishonchliligini tekshirishni qadrlashdir. Beruniyni ulug‘lash kuzatish, taqqoslash va dalilga tayanishga intilishdir. Ulug‘bek xotirasini asrash ilm uchun zarur muhit yaratish mas’uliyatini his qilishdir. Ana shunda tarixiy faxr insonning kundalik tanloviga ta’sir ko‘rsata oladi.

> *“Toshkentda yangragan o‘sha nutqning tarixiy salmog‘ini bugun, o‘n yillik masofadan turib, yanada teran anglash mumkin. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi O‘zbekistonning musulmon dunyosi bilan muloqotida muhim voqea bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan qarashlar esa keyingi yillarda ajdodlar merosini o‘rganish, ma’rifiy muassasalar barpo etish va milliy o‘zlikni mustahkamlash ishlarida o‘z aksini topdi.”*

Birinchi va Ikkinchi Renessans haqidagi tasavvur ham shu yerda ma’no kasb etadi. IX – XII asrlardagi ilmiy yuksalish va temuriylar davridagi madaniy-intellektual taraqqiyot mamlakat tarixida katta tafakkur muhitlari mavjud bo‘lganini eslatadi. Bu muhitlarda qo‘lyozma, madrasa, kutubxona, tarjima va ilmiy muloqot muhim o‘rin tutgan. Bugungi Uyg‘onish haqida o‘ylaganda, aynan ilm yaratish va rivojlantirish madaniyatini davom ettirish zarurligi anglashiladi.

2016-yilgi nutqda tarixiy merosni yoshlarning zamonaviy bilim olishi va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lash g‘oyasi mavjud edi. Keyinchalik Renessanslar merosi va yangi ma’rifiy yuksalish haqidagi qarashlar shu yo‘nalish bilan uyg‘un rivojlandi.

Milliy tarixning shonli sahifalaridagi ma’naviy tayanchning birlashtiruvchi kuchi bag‘rikenglikda namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonning umumiy tarixi, madaniyati va kelajagi turli millat hamda e’tiqod vakillariga daxldor. Islomiy merosning insonparvarlik mazmunini ochish ushbu umumiy makonni boyitadi. Milliy o‘zlikni chuqur anglash boshqa xalqlarni hurmat qilishga, o‘z tarixini bilish esa jahon bilan ochiq muloqotga zamin yaratadi.

G‘oyaning hayotiy ifodalari

Toshkent nutqining dasturiy xususiyatini aniq ko‘rsatadigan dalil – unda Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini ochish tashabbusining bevosita ma’lum qilingani. Markaz 2017-yil 27-martdagi Prezidentimizning qarori asosida tashkil etildi; o‘sha yilning 10-iyulida uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hukumat qarori qabul qilindi. Nutqdagi taklif huquqiy va tashkiliy asosga ega bo‘ldi.

2017-yilda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda Toshkentda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish to‘g‘risidagi qarorlar ham imzolandi. 2018-yil 16-aprelda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ochildi. 2020-yil 11-avgustda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga asos solindi. Ushbu muassasalar meros tadqiqi, ta’lim va yoshlar tarbiyasi vazifalarini o‘zaro bog‘ladi.

Bunday markazlar qo‘lyozmalarni o‘qish, asarlarni tarjima qilish, ilmiy nashrlarni tayyorlash va xalqaro tadqiqot aloqalarini mustahkamlash uchun muhit yaratadi. Muhimi, xalqning buyuk allomalarga hurmati professional bilim va izlanish bilan boyiydi. Ziyoratgohlarning ma’naviy ta’siri ilmiy markazlarning tafakkur qudrati bilan tutashadi.

Sivilizatsiya xotirasi va kelajak mas’uliyati

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ushbu ma’rifiy yo‘nalishning eng yirik ifodalaridan biri bo‘ldi. Dastlab Islom madaniyati markazi sifatida belgilangan loyiha keyin uning tashabbuskori taklifi bilan Islom sivilizatsiyasi markazi nomi bilan rivojlandi. Bu nom ilmiy merosni diniy hayot doirasidan kengroq – ilm, madaniyat va insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga ko‘proq mos kelishi hisobga olindi.

2026-yil 17-martda markazning rasmiy ochilish marosimi o‘tkazildi. Unda Prezidentimiz ilm va ta’limning mamlakat kelajagidagi o‘rnini yana bir bor ta’kidladi. 2016-yilda Toshkent minbaridan bildirilgan ma’rifiy qarashlarni 2026-yilgi ochilish voqeasi bilan yonma-yon qo‘yganda, qariyb o‘n yillik harakatning ichki uyg‘unligi namoyon bo‘ladi. Birinchi nutqda merosni o‘rganish va ommalashtirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, yangi markaz bu vazifalarni bajarish uchun muhtasham makon yaratdi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining jamoatchilik uchun qimmati unga kelgan insonning tarixni qanday anglashida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi bir qo‘lyozmaga qarab, uning ortidagi olim mehnatini tasavvur qiladi. Yosh tadqiqotchi ajdodlar ilmini zamonaviy mavzular bilan bog‘laydi. Xorijlik mehmon O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini keng tarixiy manzarada ko‘radi. Meros shu tariqa turli kasb va qiziqishga ega odamlar bilan muloqotga kirishadi.

Bu yerda e’tiqod bilan bilimning tarixiy yaqinligi alohida ahamiyatga ega. Qur’oni karimni anglashga intilish tafsir, kalom, balog‘at kabi ilmlarni, tilshunoslik va manbashunoslikni rivojlantirgan; inson va olamni bilish ishtiyoqi esa dunyoviy ilmlarga qiziqishga sabab bo‘lgan. O‘tmishni bor murakkabligi bilan birga ko‘rsata olgan markaz yoshlarga sivilizatsiyalar qanday yaratilganini tushunish imkonini beradi.

Shu ma’noda, yangi ilmiy muassasalar katta va muhim ishlarning boshlanishidir. Olimlarning tadqiqotlari, tarjimonlar mehnati, ustozlar mahorati va yoshlarning qiziqishi ushbu markazlar joylashgan muhtasham binolarga hayot bag‘ishlaydi. Har bir ilmiy asar, har bir sifatli tadqiqot, har bir aniq tushuntirilgan tarixiy dalil ulkan majmuaning ilmiy-ma’naviy qudratini oshiradi. Ajdodlar merosini kelajakka olib o‘tish mas’uliyati aynan shu kundalik mehnatda bajariladi.

Ziyorat orqali kengaygan muloqot

Tarixiy merosga munosabatdagi o‘zgarish xalqaro aloqalarda ham ko‘rindi. 2016-yilgi nutqda IHT mamlakatlaridan O‘zbekistonga keluvchi sayyohlar va mehmonlar uchun mamlakatga kirish rasmiyatchiliklarini soddalashtirish choralari ko‘rilishi aytilgan edi. Bu xabar mamlakat hududida jamlangan me’moriy va ilmiy merosning jahonga ochiqligi, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro uchrashuvlar va muloqotlarga berilajak ahamiyatga ishora edi.

Buxoro, Samarqand, Termiz va Toshkentga kelgan ziyoratchi xalqning xotirasi bilan tanishadi. U muqaddas qadamjolar bilan birga me’morchilikni, mahalliy hayotni, hunarmandchilik va mehmondo‘stlikni ko‘radi. Ziyorat turizmi shu bois ma’naviy muloqotni xizmat ko‘rsatish, madaniy merosni asrash va hududlar rivoji bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu imkoniyat sayyohlarga sifatli xizmat va tarixiy ma’lumotning ishonchliligi bilan yanada boyiydi.

AYSESKO tomonidan 2024-yilda Xivaga “Islom dunyosining turizm poytaxti” maqomining berilishi, shaharda IHT turizm vazirlari konferensiyasi XII sessiyasining o‘tkazilishi o‘zbek xalqi ilmiy-madaniy va me’moriy merosining xalqaro muloqotdagi o‘rnini ko‘rsatdi. Toshkentda ma’rifat haqida aytilgan g‘oyalar keyingi yillarda boshqa shaharlar va boshqa sohalarda davom etdi. Madaniy xotira mamlakatning dunyo bilan munosabatlarida faol qatnasha boshladi.

Islohotlarning inson hayotiga daxldor jihati Haj va Umra ziyoratlari imkoniyatlarida ham ko‘rinadi. 2016-yilgi nutqda O‘zbekistondan har yili besh mingdan ziyod kishilar Haj amalini ado etayotgani aytilgandi. 2026-yilda 15 ming nafar o‘zbekistonlik Haj ziyoratini va yilning birinchi yarmi mobaynida 167 ming nafar inson Umra amallarini bajardi. Bu raqamlar ortida ziyoratga yo‘l olgan minglab insonlarning orzusi va oilalarning quvonchi turibdi.

Davlatning e’tiqodga hurmati inson qadri bilan uyg‘un bo‘lganda ma’rifiy siyosat hayotiy mazmun kasb etadi. Bunda tarixiy qadamjoning obodligi ham, tadqiqotchining mehnati ham, ziyoratchining xotirjamligi ham bir maqsadga – insonning ma’naviy ehtiyojlariga hurmat bilan yondashishga xizmat qiladi.

Tamaddunni davom ettiradigan avlod

2016-yilgi Toshkent nutqining bugungi ahamiyatini faqat o‘tgan yillar natijalari bilan chegaralab bo‘lmaydi. Unda qo‘yilgan vazifalar kelgusi avlod oldida ham turibdi. Merosni anglash, yoshlarni bilimga yo‘naltirish, ilm-fanni rivojlantirish va xalqlar o‘rtasidagi muloqotni kengaytirish uzoq muddatli mehnatni talab qiladi.

Bilimli inson diniy da’voning manbasini so‘raydi, tarixiy hodisaning dalilini qidiradi, hissiyotga ta’sir qiluvchi gapni haqiqat bilan taqqoslaydi. Ana shu ko‘nikma jaholat va radikal g‘oyalar ta’sirini kamaytirishga yordam beradi. 2016-yilgi nutqda ma’rifiy merosni o‘rganish yoshlarning ilmga intilishi, islom qadriyatlarini to‘g‘ri anglashi va madaniyatlararo muloqot bilan bog‘langani bejiz emas.

Milliy g‘urur ham bilim bilan mustahkamlanadi. O‘z tarixini chuqur bilgan avlod uni soddalashtirishdan asraydi, boshqa xalqlar hissasini e’tirof etadi va ajdodlar merosiga mas’uliyat bilan qaraydi. U buyuklikni faqat mashhur nomlarda emas, o‘sha nomlarni buyuk qilgan mehnat, intizom va tafakkurda ko‘radi. Yangi uyg‘onishning insonga daxldor mezoni ana shudir.

O‘zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyevning ushbu yo‘nalishdagi siyosatini tarixiy xotirani jamiyatning ma’naviy kuchiga aylantirishga qaratilgan faoliyat sifatida tavsiflash mumkin. Ilmiy markazlar, ta’lim muassasalari, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, ziyorat turizmi va xalqaro hamkorlik shu faoliyatning turli ko‘rinishlaridir. Ularning umumiy mazmuni – xalqning merosini kelajagiga xizmat qildirish.

Bu yo‘lning natijasi bugungi kun avlodining intilishlari va qiziqishlarida ham aks etmoqda. Maktab o‘quvchisi Beruniy qanday izlanganini bilishni istasa, talaba qo‘lyozmani o‘qish uchun til o‘rgansa, yosh olim ishonchli tadqiqot bilan jahon ilmiy muloqotiga kirsa – ajdodlar merosi bugunning hayotida davom etadi. Shunda milliy xotira yangi bilim yaratishga kuch beradi.

O‘zbekistonning buyuk o‘tmishi uning kelajagi oldidagi mas’uliyatini ham buyuk pog‘onaga ko‘taradi. Birinchi va Ikkinchi Renessansni yaratgan zaminning vorislari uchun buyuk ajdodlarga eng munosib ehtirom ilmni qadrlash, haqiqatni izlash va insonga xizmat qilishdir. Toshkentda yangragan ma’rifiy da’vatning kelajakka yo‘nalgan qudrati ham shunda. Milliy tamaddun uni davom ettirishga bel bog‘lagan avlod bilan yuz ochadi.

Shoazim MINOVAROV,
siyosatshunos.

Konferensiya

OLIM XOTIRASIGA EHTIROM

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida fizika-matematika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Po‘lat Habibullayev tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan “Fizikada fundamental va amaliy tadqiqotlar” mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Unda ilm-fan va ta’lim sohasi vakillari, olimlar hamda talabalar ishtirok etdi. Dasturdan rasmiy chiqishlar, yalpi majlis va shu’ba yig‘ilishlari o‘rin oldi. Ularda fizikaning dolzarb yo‘nalishlari, jumladan, yarimo‘tkazgichlar, nanomateriallar, optik hodisalar va ularning amaliy ahamiyatiga oid ilmiy ma’ruzalar taqdim qilindi.

Anjuman doirasida Po‘lat Habibullayevning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy maktabi va boy ilmiy merosi yodga olindi.

Po‘lat Qirg‘izboyevich Habibullayev fizika-matematika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi bo‘lgan. Olim turli yillarda oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. Uning ilmiy tadqiqotlari akustik spektroskopiya, fizik va kvant akustikasi, nanofizika, chiziqli bo‘lmagan optika, lazer termokimyosi, yadro fizikasi va boshqa yo‘nalishlarni qamrab olgan. 500 dan ortiq ilmiy ishlar va 15 ta monografiya muallifi bo‘lib, 200 dan ziyod fan nomzodlari hamda 40 nafar fan doktorini tayyorlashga hissa qo‘shgan.

Ushbu xalqaro konferensiya olim xotirasini e’zozlash, ilmiy merosini o‘rganish va fizika sohasidagi fundamental hamda amaliy tadqiqotlar yuzasidan fikr almashishda ilmiy muloqot maydoni bo‘lib xizmat qilgani bilan ahamiyatlidir.

G‘olib BAHROMOV
(“Xalq so‘zi”).

Intilish

TALABALAR YARATGAN INNOVATSION QURILMALAR



Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Sun’iy intellekt laboratoriyasi talaba-yoshlarning innovatsion g‘oyalari real loyihalarga aylanayotgan muhim ilmiy-amaliy maydon bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, talabalar tomonidan yaratilib, hozirgi kunda 15 ta xonadonda sinovdan o‘tkazilayotgan “Smart Boiler” qurilmasi ko‘mirda ishlaydigan isitish qozonlarini avtomatlashtirish va telefon orqali masofadan boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga, “Aqlli termodatchik” esa Urganch va Andijon shaharlari hamda tumanlaridagi maktab va bog‘chalarga o‘rnatilib, issiqlik ta’minotini monitoringdan o‘tkazish, energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biz va tabiat

O‘ZBEKISTON FAUNASI YANADA BOYIDI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti va xorijlik olimlar “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘ida mamlakatimiz hududida ilgari uchramagan yangi ko‘rshapalak turini aniqlashdi.



Ma’lumotlarga ko‘ra, turkman uzunquloq ko‘rshapalagi (Plecotus turkmenicus) Markaziy Osiyoda tarqalgan o‘ta noyob hamda kam o‘rganilgan tur hisoblanadi. Ilgari u faqat 1970-yilgacha mavjud ma’lumotlar hamda muzey eksponatlari orqaligina ma’lum bo‘lib, so‘nggi 55 yil davomida tabiatda deyarli uchramagandi.

Darvoqe, mazkur tadqiqot Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) tomonidan amalga oshirilayotgan, Germaniya Atrof-muhit vazirligining Xalqaro iqlim tashabbusi moliyalashtiradigan Tabiatni muhofaza qilishda “Yagona salomatlik” (“One Health in Nature Conservation”) loyihasi doirasida tashkil etilgan ekspeditsiya chog‘ida olib borildi.

“Xalq so‘zi”.

Yurtimizda yil yakunigacha 620 ming gektar, kelgusi yilda 3 million 700 ming gektar yaylovni qayta tiklash hamda hosildorligini oshirish ko‘zda tutilgan.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 01.53 Topshirildi – 02.20 1 2 3 4 5 6